



## THE NEW UZBEKISTAN WHERE HUMAN RIGHTS ARE APPRECIATED

**Lola Muzaferovna Karimova**  
associate professor, Ph.D  
Bukhara State Medical Institute  
Bukhara, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** social mobility, philosophy of society, socialization, feminism, gender equality

**Received:** 16.12.23

**Accepted:** 18.12.23

**Published:** 20.12.23

**Abstract:** In this article, the author presented his research results on the issue of regulating the mechanisms of social mobility. The main factor of social management is the regulation of social mobility mechanisms.

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

**Lola Muzaferovna Karimova**  
dotsent, PhD  
Buxoro davlat tibbiyot instituti  
Buxoro, O'zbekiston

### МАҚОЛА НАҚИДА

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy harakatchanlik, jamiyat falsafasi, sotsializatsiya, feminizm, gender tengligi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlarini tartibga solish masalasi bo'yicha o'z tadqiqot natijalarini taqdim etdi. Ijtimoiy boshqaruvning asosiy omili ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlarini tartibga solishdir.

## НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН, ГДЕ ЦЕНЯТ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

**Лола Музаферовна Каримова**  
доцент, PhD  
Бухарский государственный медицинский институт  
Бухара, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

<b>Ключевые</b>	<b>слова:</b>	социальная общество, гендерное	<b>Аннотация:</b> В данной статье автор изложил свои результаты исследования по вопросу регулирования механизмов социальной мобильности. Главный фактор
мобильность,	философия		
социализация,	феминизм,		
равенство			

## **KIRISH**

Ijtimoiy jarayonlarni boshqarish usullari orasida bugungi kunda ularni tartibga solish usuli alohida dolzarblik kasb etadi. Tartibga solish (regulyatsiya) tushunchasining mohiyatiga doir turli nuqtai nazarlar mavjud. Masalan, ta'sirning yo'nalishitidan kelib chiqib tartibga solish ijtimoiy ob'ektning o'zini emas, balki u faoliyat yuritadigan va rivojlanadigan muhit sharoitlarini o'zgartirishga qaratilgan bilvosita boshqaruv ta'sirining bir turi hisoblanadi.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish davomida jamiyat a'zolaridan ayollarga ijtimoiy tajriba topshirish ro'y beradi, ular ijtimoiy muhitda moslashish uchun zarur bo'lgan axloq namunalarini o'zlashtiradi (ijtimoiylashuv funksiyasi); zarur hollarda ayollarga ruhiy himoya, ko'mak, psixologik terapiya va emotsiyal barqarorlashtirish xizmatlari ko'rsatiladi (emotsional funksiya).

## **ASOSIY QISM**

Ijtimoiy mobillikni tartibga solishning daroji va xarakteriga yuqori stratalardagi shaxslarning ilgari surilishiga ko'maklashuvchi hamda pastki stratalarga mansub odamlarga to'sqinlik qiluvchi ko'plab rasmiy va norasmiy cheklovlar va shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, jamoatchilik fikri va OAV ayollarda harakatchanlikka doir ma'lum intilishlarni shakllantiradi.

Ayollarning yashash joyi, ta'lim muassasasining turi, hududiy mehnat bozoridagi vaziyatning o'ziga xos jihatlari va boshqalar ayollar ijtimoiy mobillikning muhim shartlari va omillari hisoblanadi.

Ijtimoiy jarayonning dinamik modeli uning vaqttagi o'zgarishini izohlaydi. Ijtimoiy mobillik jarayonini bosqichlarga bo'lish uchun A.N.Leontev tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasi elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy mobillik jarayonining boshlang'ich bosqichi qandaydir ehtiyojning vujudga kelishi va uning emotsiyal his etilishidan iborat. Motiv bir nechta funksiyalarni bajaradi, ularning eng muhimi faoliyatga qo'zg'atish, unga yo'naliш va ma'no bag'ishlashdir. Navbatdagi bosqich manfaatni shakllantirish va maqsadning yuzaga kelishidir. Keyinchalik motivatsion mo'ljalni shakllantirish ro'y beradi, ya'ni motivni anglab, unga emotsiyal baho berib hamda harakat qilishga tayyor bo'lgan holda ijtimoiy mobillikni sodir etishga potensial tayyorlik shakllanadi. Keyingi bosqich o'z ichiga ijtimoiy mobillik harakati, aynan sodir etilgan harakatni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy mobillikning yakuniy bosqichida individlar yangi ijtimoiy guruhning normalari, qadriyatları, turmush tarzini idrok etadi, u yerdagи mavjud o'zaro munosabatlarga kirishadi – ijtimoiylashadi, bu o'z navbatida, ijtimoiy moslashuv va ijtimoiy interiorizatsiya (tashqi ta'sir orqali ichki ruhiy tayyorgarlik tizimining shakllanishi) bosqichlarini o'z

ichiga oladi.

Turli shart-sharoitlardan kelib chiqib, ayollar ijtimoiy mobililikni tartibga solishning davomiyligi uzayishi yoki qisqarishi mumkin. Temp ya’ni tezlik buning muhim jihatidir. Ijtimoiy mobililik tempi uning jadalligi bilan izohlanadi. Jadallik deganda «ma’lum vaqt mobaynida individ tomonidan o’sib boruvchi yoki pasayib boruvchi yo‘nalishda bosib o‘tiladigan vertikal ijtimoiy masofa yoxud iqtisodiy, kasbiy yoki siyosiy qatlamlarning miqdori» tushuniladi.

Ijtimoiy mobililik jarayoni asosiy alomatlarining namoyon bo‘lish darajasi ma’lum davr oralig‘ida vertikal yo‘nalishda o‘z ijtimoiy holatini o‘zgartirgan individlar miqdorini ta’rifovchi hajm tushunchasini izohlaydi. «Bunday individlarning mutlaq miqdori mutlaq hajmni; bunday individlarning butun aholiga nisbati nisbiy vertikal harakatchanlik hajmini anglatadi».

Ayollar ijtimoiy mobililikni tartibga solishni amalga oshirishga tayyorgarlik tartibga solishning xarakteri va maqsadini aniqlashdan boshlanadi. Ushbu tadqiqotda ayollar ijtimoiy mobililikni tartibga solishning maqsadi ayollar o’sib boruvchi vertikal va ixtiyoriy gorizontal harakatchanligiga ko‘maklashish sifatida belgilangan.

Bunday ko‘makning zaruriyati ayollarning mavqega doir intilishlari hamda ularning jamiyat tomonidan qondirilishi o‘rtasida mutanosiblikni o‘rnatish va saqlab qolishga doir ijtimoiy ehtiyoj bilan izohlanadi. Ammo “bunday ehtiyojni qondirish ko‘p hollarda bartaraf etib bo‘lmaydigan to‘siqlarga duch keladi” hamda ko‘plab ijtimoiy nizolarni bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ayollar ijtimoiy mobililikni tartibga solishning navbatdagi bosqichi tartibga solish ob’ektini kompleks tahlil qilish, ya’ni ayollarni va ularning ijtimoiy mobilligi omillarini o‘rganishdan iborat. Ayollar ijtimoiy mobililikni kompleks tahlil qilish quyidagilarni nazarda tutadi: 1) Ayollar holatini, ularning ijtimoiy qiyofasini tavsiflash; 2) Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitlarida ayollar ijtimoiy mobililik tendensiyanlarni aniqlash va tahlil qilish; 3) Ayollarning o’sib boruvchi va pasayib boruvchi vertikal harakatchanligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni (ta’sir kuchlari) aniqlash, ularning harakatchanlikka ta’sir darajasini aniqlash.

Keyingi bosqichda ayollar ijtimoiy mobililik jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan kuchlar, ijtimoiy elementlar (regulyatorlar) yig‘indisini aniqlash amalga oshiriladi.

Tayyorgarlik bosqichi tartibga solishning mexanizmlarini belgilash bilan yakunlanadi. Ayollar ijtimoiy mobililikni tartibga solish mexanizmlari ayollar ijtimoiy mobillik omillariga ta’sir ko‘sartishni nazarda tutadi hamda ijtimoiy institutlar, tashkilotlar, alohida individlarning faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Ayollar ijtimoiy mobililikni tartibga solish jarayonining keyingi bosqichlari tartibga soluvchi ta’sirni amalga oshirish hamda ishlab chiqilgan mezonlar asosida ayollar ijtimoiy mobililikni tartibga solishning samaradorligini baholashni nazarda tutadi.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solish – bu ayollarning jamiyat hayotining turli sohalaridagi vertikal o‘sib boruvchi (va ixtiyoriy gorizontal) mobilligi uchun sharoitlar yaratish, shu bilan bir vaqtda, pasayib boruvchi mobillikka olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan siyosiy institutlar, jamoatchilik nazorati institutlari, ta’lim institutlari, iqtisodiy institutlar, ijtimoiy-moslashuv institutlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ayollar bilan ishlovchi tashkilotlarning ta’sir ko‘rsatish darajasini doimiy tahlil qilib borish lozim bo‘ladi.

Ayollar ijtimoiy mobillikni tartibga solishning dinamik modeli yordamida tartibga solishning maqsadi va xarakterini belgilash, tartibga solish ob’ektini kompleks tahlil qilish, tartibga solishning regulyatorlari va mexanizmari, tartibga solish bosqichlari aniqlash va tartibga soluvchi ta’sirga baho berish imkonini yaratiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Данакин Н.С. Теоретические и методические основы проектирования технологий социального управления. – Белгород: Центр социальных технологий, 1996. – С. 23-24.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М: Политиздат, 1975. – С.72.
3. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М: Политиздат, 1992. – С. 376.
4. Чупров В.И., Зубок Ю.А., Уильяме К. Молодежь в обществе риска. – М: Наука, 2003. – С.99.
5. Karimova L. M. SOCIAL PROCESSES SOCIAL MOBILLIKNING MOVEMENT QUALITATIVE STREET //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 17-23.
6. Karimova L. M. JAMI OF SUFI PHILOSOPHY //Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 105-108.
7. Karimova L. M. ETHICS IN THE WORKS OF ABDURAHMAN JAMI //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2023. – Т. 5. – №. 04. – С. 73-76.
8. Karimova L. M. THE IMPORTANCE OF THE IDEAS OF FRIENDSHIP IN STRENGTHENING THE SOLIDARITY AND UNION OF YOUNG PEOPLE IN THE VIEWS OF THE THINKER //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 247-251.
9. Karimova L. M. Abdurrahman Jami And Sufism //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 8. – С. 2866-2874.
10. Karimova L. M. SOCIO-CULTURAL AND SCIENTIFIC ENVIRONMENT IN MOVAROUNNAHR AND KHORASAN IN XIII-XV CENTURIES //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2022. – Т. 3. – №. 07. – С. 29-38.

11. Karimova L. M. IDEOLOGICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ABDURAHMAN JAMI'S VIEWS ON THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – T. 2. – №. 07. – C. 28-34.
12. Muzaffarovna K. L. THE VIEWS OF ABDURAHMAN JAMI ON FAMILY AND FAMILY UPBRINGING //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – C. 90-94.
13. Karimova L. M. The Role of the Ideas about Human Qualities of Thinker Abdurahman Jami in the Education of Youth // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – C. 30-32.
14. Karimova L. M. About Human Health and Manners in the Rashkhas of Abdurahman Jami //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 24-27.
15. Karimova L. M. Abdurahman Jami's Views on Humanity (Source Study) //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 11. – C. 146-149.
16. Karimova L. M. ABDURAHMON JOMIY GUMANISTIK QARASHLARINING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI O 'RNI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 8. – C. 448-455.
17. Karimova L. M. The Issues of Human Being in the Rashhas of Abdurahman Jami //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16. – C. 28-34.
18. Каримова Л. М. АБДУРАХМОН ЖОМИЙ ФАЛСАФИЙ ДУНЁҚАРАШИ ШАКЛЛАНИШИНинг ГЕНЕЗИСИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 273-282.
19. Choriyeva , M. A. . (2023). EXISTENTIALISM: BRIEFLY ABOUT THE MOST IMPORTANT THINGS. Journal of Social Research in Uzbekistan, 3(06), 18–23. <https://doi.org/10.37547/supsci-jsru-03-06-04>
20. Choriyeva M. A. THEORY OF KNOWLEDGE AND RATIONALISM IN THE PHILOSOPHY OF FIRDAVSI //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 104-108.
21. Choriyeva , M. A. . (2023). THE VALUE OF THE PHILOSOPHICAL IDEAS OF FIRDAVSI IN THE EDUCATION OF YOUTH. Oriental Journal of History, Politics and Law, 3(06), 136–141. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-03-06-17>
22. Akhmedova, Z. A. . (2023). EASTERN PHILOSOPHY: FEATURES AND RANGE OF PROBLEMS. Journal of Social Research in Uzbekistan, 3(06), 1–6. <https://doi.org/10.37547/supsci-jsru-03-06-01>
23. Akhmedova Z. A. ANTHROPOLOGY AND SUFI ETHICS //Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 55-57.

24. Gadoyeva L. E. THE PLACE OF PHILOSOPHY IN ISLAM //Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 33-37.
25. Gadoyeva , L. E. . (2023). FEATURES OF THE PHILOSOPHY OF THE ANCIENT EAST. Journal of Social Research in Uzbekistan, 3(06), 12–17. <https://doi.org/10.37547/supsci-jsru-03-06-03>
26. Khamdamov B. K. MORAL VIEWS OF ZAKHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR //Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 91-94.
27. Choriyeva M. A. THEORY OF KNOWLEDGE AND RATIONALISM IN THE PHILOSOPHY OF FIRDAVSI //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 104-108.
28. Choriyeva M. A. THE THEORETICAL ORIGIN OF FIRDAUSI'S PHILOSOPHICAL WORLD VIEWS.(ANALYSIS OF PART 1) //Journal of Social Research in Uzbekistan. – 2022. – T. 2. – №. 04. – C. 34-39.
29. Choriyeva M. A. The theoretical origin of firdausi's philosophical world views.(analysis of part 3) //Builders Of The Future. – 2022. – T. 2. – №. 03. – C. 7-12.
30. Akhmedova Z. A. PHILOSOPHY OF THE FIRST JADID AHMAD MAHDUM DONISH //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 41-44.